

*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
Sotvoldiyeva Mohinur Ilxomjon qizi  
Rahmonova Mavluda Sherali qizi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Tasavvuf ilmi, tasavvufni asosiy tamoyillari ,tasavvuf ilmining mohiyati va maqsadi,tasavvufning tarixiy rivojlanishi, tasavvufdagi nazariy va amaliy yo'nalishlar,mashhur mutasavvuflar va ularning tafassuf ilmiga qo'shgan hissasi ,tasavvufning inson ma'naviy kamolotidagi o'mi ,tassavvufning boshqa madaniyat va dinlardagi ta'siri ,tasavvufda Allohga yaqinlik yo'llari ,tasavvuf va adabiyot ,tasavvufdagi manaviy tarbiya usullari haqidagi fikr va mulohazalar keng tarzda yoritilgan.

### **Абстрактный**

В этой статье наука суфизма, основные принципы суфизма, сущность и цель науки суфизма, историческое развитие суфизма, теоретические и практические направления в суфизме, знаменитые мистики и их вклад в науку суфизма, роль суфизма в духовном развитии человека, другие аспекты суфизма, его влияние на культуру и религию, способы приближения к Богу в суфизме, суфизме и литературе. широко освещены мысли и мнения о методах духовного образования в суфизме.

### **Abstract**

This article broadly covers the science of Sufism, the basic principles of Sufism, the essence and purpose of Sufism, the historical development of Sufism, theoretical and practical directions in Sufism, famous Sufis and their contribution to the science of Sufism, the role of Sufism in human spiritual development, the influence of Sufism on other cultures and religions, ways of approaching Allah in Sufism, Sufism and literature, and thoughts and reflections on the methods of spiritual education in Sufism.

**Kalit so'zlar:** Nafs, poklanish, qalb, ilohiy muhabbat, ma'rifat, Ruhiy poklanish, zamonaviy jamiyat, falsafiy yondashuv, shariat, tariqat, haqiqat, Olam, inson, ixlos.

Tassavvuf ilmi – Islom dunyosida ruhiy kamolot va ichki poklikni ta'minlashga qaratilgan yuksak ma'naviy yo'nalishdir. U inson qalbini tarbiyalash, nafsni tiyish va Allohga yaqinlashish maqsadida shakllangan. Tassavvuf shunchaki nazariy ta'limot emas, balki amaliyotga asoslangan chuqur falsafiy yo'nalishdir. Bu ilmning asosi shariat, tariqat va haqiqat tamoyillariga tayanadi. Shariat – tashqi qonun-qoidalarga amal qilish, tariqat – bu yo'ljadi ma'naviy sayohat, haqiqat esa – ilohiy haqiqatni anglashni anglatadi. Mutasavvuflar nafsni poklash va qalbni Allohga bo'lgan

muhabbat bilan to'ldirish orqali ma'naviy yuksalishga erishishni maqsad qiladi. Tassavvuf ilmi tarix davomida ko'plab buyuk mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan. Jaloliddin Rumiy, Ibn Arabiy va Al-G'azzoliy kabi buyuklar insoniyatni qalban boyituvchi asarlar yaratgan. Ularning yozgan she'riy va falsafiy asarlari inson ruhiyatining tub mohiyatini ochib bergen. Tassavvuf ilmi nafaqat diniy yo'nalishda, balki ijtimoiy va madaniy hayotda ham muhim rol o'ynaydi. Ruhiy tarbiya va ichki poklik jamiyatni yanada adolatli va uyg'un qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy davrda ham bu ilm insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga ko'mak beradi, ularni dunyoviy tashvishlardan uzoqlashtirib, ichki xotirjamlikka eltadi. Tassavvuf insonning ma'naviy yuksalishi va ichki dunyosining mukammallashuviga qaratilgan ilmdir. U insonni ruhiy poklikka, nafsini tarbiyalashga va Allohga yaqinlashishga undaydi. Bu ilmning asosiy maqsadi — insonni o'z mohiyatini anglash, qalbni tozalash va jamiyatda o'z o'rnni topishga yordam berishdir.

Nafsni tarbiyalash va qalbni poklash.

Tassavvufning muhim jihatlaridan biri nafsni tarbiyalash va qalbni poklashdir. Insondagi manfiy xislatlar — hasad, g'azab, tamagirlik va kibrni yo'qotish orqali qalb tozalanadi. Bu esa insonni yuksak ruhiy maqomga olib chiqadi. Mutasavvuflarning ta'lilotiga ko'ra, qalb pok bo'lsa, unda ilohiy nur joylashadi, va inson o'z ichki salohiyatini to'liq namoyon qila oladi.

Axloqiy kamolotga erishish.

Tassavvuf axloqiy qadriyatlarni yuqori darajaga olib chiqadi. Sohibkomillikka erishish uchun inson adolatli, halol va sabrli bo'lishi kerak. Tasavvuf, insonni faqat Allohga xizmat qilishga emas, balki atrofdagilarga mehribon bo'lishga ham undaydi. Shuningdek, tasavvuf hayotdagi barcha qiyinchiliklarga sabr bilan qarashni va tavakkulni targ'ib qiladi. Allohga yaqinlik va ma'naviy yuksalish .Tassavvuf orqali inson o'zini Allohga yaqinroq his qiladi. Zikr va riyoza kabi tasavvufiy amaliyotlar inson qalbini mustahkamlashga yordam beradi. Bu amaliyotlar insonni dunyoviy g'am-andishalardan uzoqlashtirib, ilohiy haqiqatni anglashga undaydi.Jamiyatdagi o'rni va ahamiyati. Tassavvuf insonning nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham yaxshilashga qaratilgan. U ijtimoiy birdamlik, mehr-oqibat va bag'rikenglikni targ'ib qiladi. Mutasavvuflar insonlarning bir-biriga nisbatan mehribon va adolatli bo'lishlari kerakligini o'rgatgan. Bu, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ichki xotirjamlik va baxtga erishish .Tassavvuf insonni ichki xotirjamlikka olib boradigan yo'l sifatida qaraladi. Ruhiy poklikka erishgan inson hayotdagi tashvishlar va qiyinchiliklarga bardosh bera oladi. Allohga bo'lgan muhabbat va ishonch, insonni haqiqiy baxt va ichki tinchlikka eltadi. Tassavvuf inson qalbini poklash va nafsni tarbiyalash orqali ruhiy yuksalishga erishishni maqsad qilgan. Bu ta'lilotning markazida ma'naviy tarbiya yotadi. Tassavvufga ko'ra, insonning ichki

olami uning tashqi xatti-harakatlaridan ustun turadi. Shuning uchun ma'naviy tarbiya insonni mukammallashtirish va haqiqiy baxtga eltuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Tassavvufning birinchi maqsadi nafsni poklash va uning zararli istaklarini jilovlashdir. Bu jarayonda inson hasad, kibr, tamagirlik kabi illatlardan xalos bo'lishi kerak. Riyozat va zikr orqali nafsiy poklanish amalga oshiriladi.

Zikr — Allohni eslash orqali qalbni poklash va unga yaqinlashish vositasidir. Zikr qalbga tinchlik olib keladi va insonni ma'naviy yuksalishga olib boradi. Ma'naviy tarbiyaning asosiy mezonlaridan biri Allohga bo'lgan chuqur muhabbatdir. Bu muhabbat insonni dunyoviy lazzatlardan uzoqlashtirib, ruhiy barkamollikka olib keladi. Tassavvufdagi ma'naviy tarbiya nafaqat individual rivojlanishga, balki jamiyatda axloqiy va ruhiy uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Pok qalbli va ma'naviy yetuk insonlar jamiyatdaadolat va mehr-muruvvatni qaror toptirishga yordam beradi.

### **Xulosa.**

Tassavvufdagi ma'naviy tarbiya insonning qalbini poklash, axloqini yuksaltirish va ruhiy barkamollikka erishish yo'lida asosiy omildir. Bu ta'limot insonni nafaqat dunyoviy hayotda, balki oxiratda ham muvaffaqiyatga olib boradi. Shu sababli, tessavvufning ma'naviy tarbiya tamoyillari bugungi zamонавија jamiyatda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Komilxon Kattayev Asar: "Tasavvuf allomalari" Yili: 2018
2. M. Ismoilov Asar: "Shayx Xudoydodning 'Baxr al-ulum' asari Markaziy Osiyoda tasavvuf tarixiga oid muhim manba" Yili: 2006
3. K. Rahimov Asar: "Mustamliy Buxoriyning 'Sharh at-Ta'arruf asari hamda uning XI-XV asrlar Movarounnahr va Xuroson tasavvuf manbalariga ta'siri" Yili: 2018
4. M. Mamatov Asar: "Tasavvuf ta'limotining tarixiy-falsafiy mohiyati" Yili: 2018
5. O. Tursunova Asar: "Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy tasavvuf ta'limotida axloqiy qadriyatlar" Yili: 2002.
6. G. Navruzova Asar: "Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi" Yili: 2002